

## TOXIR MALIKNING “ODAMIYLIK MULKI” DA MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARI SHARHI

**Umurzaqova Nargiza Abdurashidovna,**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*  
*o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*  
ORCID: 0009-0005-8402-816x

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Toxir Malikning “Odamiylik mulki” asarida mumtoz adabiyot namunalari sharhi xususida so‘z yuritiladi. “Odamiylik mulki” asarida uchragan mumtoz adabiyot namunalari mavzu ko‘lami va yozuvchi pozitsiyasi masalalari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** mumtoz adabiyot, asar, tahlil, ma’naviyat, madaniyat, mumtoz asar, meros.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности интерпретации образов классической литературы в произведении Тохир Малика «Одабийлик мулки». Освещаются вопросы тематического охвата образов классической литературы, встречающихся в данном произведении, а также авторская позиция писателя.

**Ключевые слова:** классическая литература, произведение, анализ, духовность, культура, классическое наследие, наследие.

**Abstract.** The article is about the review of samples of classical literature in the work “the property of humanity” by Toxir Malik. In the work “property of humanity”, the issues of the subject scale and writer's position of the samples of classical literature encountered are covered.

**Key words:** classical literature, work, analysis, spirituality, culture, classical work, heritage.

**Kirish.** O‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Tohir Malikning asarlarida inson qalbi va ma’naviyati masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Uning “Odamiylik mulki” asari insoniy fazilatlarni ulug‘lash, jamiyatdagi ma’naviy inqirozga qarshi kurash, halollik va poklikni targ‘ib etish maqsadida yaratilgan. Asarda muallif o‘quvchini chuqur falsafiy mulohazalarga chorlaydi.

“Odamiylik mulki” – muallif tomonidan insoniy fazilatlar va tarbiya mohiyatini chuqur ochib beruvchi asar bo‘lib, unda ko‘plab mumtoz adabiyoti namoyondalari, din arboblarning hikmatli so‘zlaridan o‘rinli foydalanilgan. Mazkur maqolaning maqsadi Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida mumtoz adabiyot namunalari sharhini tahlil qilishdan iborat.

**Adabiyotlar sharhi.** O‘zbek adabiyotshunosligida Tohir Malik ijodi turli jihatlaridan o‘rganilmagan. Shunga qaramay aytish mumkinki, Sarvinoz Rasulova o‘z tadqiqotida yozuvchining qissalari poetikasini tahlil qilib, ularning badiiy qurilishi va obrazlar tizimini ochib bergan.

S. Yangiboyeva esa Tohir Malik asarlarida diniy-ma’rifiy motivlarning badiiy sintezini o‘rganib, ularning ma’naviy ahamiyatini asoslagan.

Biroq o‘zbek adabiyotida yozuvchining “Odamiylik mulki” risolasida mumtoz adabiyot namunalari sharhi, undagi mumtoz adabiyot an’analari va ma’naviy-axloqiy g‘oyalarning kompleks tahlili alohida o‘rganilmagan. Shu jihatdan ushbu maqolada mazkur masala chuqurroq tahlil qilinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot davomida qiyosiy-tahliliy, semiotik va hermenevtik metodlar qo‘llanildi. Asosiy manba sifatida yozuvchining “Odamiylik mulki” asari o‘rganildi. Shuningdek, adabiyotshunos olimlar qarashlari bilan solishtirish amalga oshirildi.

**Natijalar.** Tahlil natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Asarda inson kamoloti asosiy g‘oya sifatida ilgari suriladi;
2. Mumtoz adabiyot namunalari yozuvchining fikrini dalili sifatida keltiriladi va tahlilga tortiladi;
3. Tasavvufiy qarashlar badiiy tahlil orqali ifodalanadi;
4. Infoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar talqin qilinadi.

Tohir Malik ijodi yuzasidan so‘z yuritganda ayrim tadqiqodchilar Tohir Malik mustaqillik yillaridan so‘ng o‘z asarlarida mumtoz adabiyot g‘oyalarini aks ettira boshladi va shu davrlardan boshlab uning ijodida diniy qarashlarni ko‘rishimiz mumkin degan noto‘g‘ri xulosani berishadi. Yana bir qator tadqiqodchilar esa ijodkor faoliyatining boshqan to‘ohiri qadar diniy qarashlar va mumtoz adabiyot an‘analarini uchratish mumkinligini aytishadi. Biz o‘z tadqiqodimiz davomida Tohir Malik ijodida mumtoz adabiyot an‘analari va diniy motivlar hamisha yetakchi o‘rinda turganini, ma‘lum davrlarda yetarlicha sabablar oqibatida ularni muallifning o‘zi istamagan holda asar tarkibidan olib tashlagani, mustaqillik yillaridan so‘ng esa yana asar tarkibiga kiritilganini kuzatdik. Bu haqida muallifning o‘zi ham yozuvchilar uyushmasi a‘zosi Xoliyor Safarov bilan bo‘lgan suhbatda shunday deb yozadi: “Ilgari senzura ko‘p qiynardi. “Falak”da diniy oyat va kalimalar bor. O‘zbekchasini ishlatganman. Erkin Vohidov “Yosh gvardiya”da ishlardi. Kitob bo‘layotganda “Tohir, shu oyat va kalimalarning arabchasini ham bersangiz-chi...” dedi. Arabchasini ham qo‘shdim, ammo senzuradan o‘tmadi. “Somon yo‘li elchilari”da bugungi Orol fojialarining hammasini Unet degan sayyora misolida berganman. Uni 1970-yilda yozganman. Bizda o‘tdi, ammo Moskvada sezib qolishdi... “Unet” – aslida unaqa sayyora yo‘q, hammasi Orol haqida ekanligini tushunib qolishdi. Keyin asarni “Devona” deb nomladik. Bu asar bo‘yicha ko‘p savol-javob qilishgan. Meni anuv idora ko‘p chaqirardi. Idoraga kirayotib, qaytib chiqamanmi, yo‘qmi, bilmasdim. “Mening ham peshanamda tog‘amning qismati bor ekan-da...” derdim. Uydagilarga aytmasdim. Bular haqida “Po‘rtanali ummonda suzar hayot qayig‘i”da yozganman. Uni o‘qib, uydagilar endi bilishdi, “Shunaqa ishlar ham bo‘lgan ekan-da”, deyishdi... Shukrki, hammasi yaxshilikka bo‘ldi. Hammasi o‘tib ketdi. Mustaqillikdan keyin hammasini tikladim, hammasi nashr etildi. Muxlislarning, kitobsevarlarning boriga shukr” [2:58].

Yozuvchi ijodida diniy qarashlar mustaqillikdan oldin ham muhim o‘rin egallagan. U o‘z xotiralarida “Falak” asarida diniy oyat va kalimalardan foydalanganini alohida ta‘kidlaydi. Bu holat sovet davrida mavjud bo‘lgan qat‘iy senzura sharoitida ham yozuvchi ijodida diniy-ma‘naviy qadriyatlarga bo‘lgan e‘tibor mavjud bo‘lganini, ammo uni nashr qilishning imkoni bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Chunki o‘sha davr adabiyotida diniy

mazmunni ochiq ifodalash qiyin bo'lgan, ko'plab asarlar senzura tomonidan tekshirilgan va ba'zan nashrga ruxsat berilmagan. Shunga qaramay, Tohir Malik diniy oyat va kalimalarning o'zbekcha variantlarini asarga kiritgani katta bir jasorat edi. Bu esa yozuvchining diniy manbalarga bo'lgan hurmati va ularni badiiy tafakkurida muhim qadriyat sifatida ko'rganini bildiradi. Tohir Malik o'z asarlarida diniy qarashlarni, mumtoz adabiyot an'analarini targ'ib qilishga qanchalar urunmasin, tuzum bunga yo'l qo'ymagani, asarlariga juda ko'p o'rinlarda o'zgartirishlar kiritishga majbur bo'lgani, hatto sarlavhasini ham o'zgartirib nashrga berishga majbur bo'lgani haqida kuyinib gapiradi. Shunga qaramay, yozuvchi o'z asarlarida diniy-ma'naviy ruhni saqlab qolishga intilgan.

Yozuvchining "Somon yo'li elchilari" asari haqidagi izohi ham uning badiiy tafakkuri kengligini ko'rsatadi. U Orol fojiasini "Unet" nomli sayyora timsolida berib, muammolarni ramziy usulda ifodalagan. Bu esa yozuvchining murakkab ijtimoiy va ma'naviy masalalarni badiiy timsollar orqali yoritishga intilganini ko'rsatadi. Asarda yashirin ma'no mavjudligi senzura organlari tomonidan ham sezilib, asar yuzasidan ko'plab savol-javoblar bo'lgani aytiladi.

Umuman olganda, Tohir Malikning ushbu xotiralari yozuvchi ijodida mustaqillik yillaridan oldin ham diniy va ma'naviy qarashlar muhim o'rin tutganini tasdiqlaydi. U senzura sharoitida ham milliy va diniy qadriyatlarni, mumtoz adabiyot an'analarini badiiy asarlarga singdirishga harakat qilgan. Mustaqillikdan keyin esa bu imkoniyat yanada kengayib, ilgari senzura sabab nashr etilmagan yoki to'liq chop etilmagan asarlar qayta tiklanib, kitobxonlarga yetkazildi. Bu holat yozuvchi ijodining izchil rivojlanishida mustaqillik davri muhim bosqich bo'lganini ko'rsatadi.

Bizga ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyotining ko'plab namoyandalari tasavvuf g'oyalaridan ilhomlangan holda ijod qilganlar. Tasavvuf insonning ruhiy kamoloti, qalb pokligi, ilohiy haqiqatni anglash va komil inson g'oyalarini targ'ib etadi. Shu sababli mumtoz adabiyotda ham insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy poklanishi va Allohga bo'lgan muhabbati kabi g'oyalar yetakchi mavzulardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tasavvuf ta'limotida insonning ichki dunyosini poklash, nafsni tiyish, sabr, shukr, tavba, qanoat kabi fazilatlar muhim hisoblanadi. Bu g'oyalar mumtoz adabiyot asarlarida ramziy va badiiy obrazlar orqali ifodalangan. Masalan, ishq, yor, may, soqiy kabi timsollar asosan tasavvufiy ma'noda talqin qilinadi. Ishq – ilohiy muhabbatni, yor – Haqni, may esa ilohiy ishqqa eltuvchi vosita-ma'rifatni anglatadi.

Shuningdek, tasavvuf mumtoz adabiyotning falsafiy va ma'naviy asosini boyitgan. Bu ta'limot orqali adabiyot faqat estetik zavq beruvchi san'at emas, balki insonni tarbiyalovchi, uni ma'naviy kamolot sari yetaklovchi vosita sifatida ham namoyon bo'lgan. Shu bois mumtoz adabiyot asarlarini chuqur anglash uchun tasavvufiy qarashlar va ramzlarning ma'nosini bilish muhimdir.

Umuman olganda, tasavvuf ta'limoti mumtoz adabiyotning g'oyaviy-ma'naviy negizlaridan biri hisoblanadi. Bu ta'limot adiblar ijodida insonparvarlik, komillik, ilohiy

muhabbat va ruhiy poklik g'oyalarining keng yoritilishiga zamin yaratgan. Professor I.Haqqulning yozishicha, "Tasavvuf tarixi juda uzoq, ayni paytda nihoyatda murakkab va qiziqarli bir tarixdir. Hazrati Payg'ambar davrida barcha islom ilmlari mushtarak bo'lib, fiqh, kalom, tasavvuf deya ajratishlar bo'lmagan. Qur'onda tasavvuf so'zi ushramasa-da u Qur'on va Sunnadan quvvat oladi. Muhammad Payg'ambar davrlarida ham bu so'z deyarli qo'llanilmagan [3:15].

Bundan ko'rinadiki, tasavvuf ta'limotining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bilan bog'liq bo'lib, u islom madaniyati va ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Olim ta'kidlaganidek, tasavvufning ildizlari Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) davriga borib taqaladi. O'sha davrda islom ilmlari hali alohida-alohida fan sifatida shakllanmagan, balki yagona diniy-ma'naviy tizim sifatida mavjud bo'lgan. Keyinchalik fiqh, kalom, tasavvuf kabi sohalar mustaqil ilmiy yo'nalishlar sifatida rivojlangan.

Qur'oni karimda "tasavvuf" atamasi bevosita uchramasa-da, uning mazmun-mohiyati Qur'on oyatlari va Payg'ambarimiz sunnatlariga tayanadi. Tasavvuf aslida inson qalbini poklash, nafsni tiyish, Allohga yaqinlashish va komil inson bo'lish g'oyalarini targ'ib etuvchi ma'naviy ta'limotdir. Shu bois tasavvufning asosiy g'oyalari Qur'ondagi taqvo, sabr, shukr, ixlos va tavakkul kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liqdir.

Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) davrida "tasavvuf" atamasi keng qo'llanilmagan bo'lsa-da, uning mazmunini tashkil etuvchi ruhiy poklik, zohidlik, kamtarlik va Allohga muhabbat kabi fazilatlar musulmonlar hayotida muhim o'rin tutgan. Keyingi asrlarda esa bu ruhiy-amaliy tajribalar tizimlashib, tasavvuf ta'limoti sifatida shakllangan va rivojlangan.

Shu jihatdan qaraganda, tasavvuf nafaqat diniy ta'limot, balki Sharq adabiyoti va madaniyatining ham muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Mumtoz adabiyot namoyandalari tasavvuf g'oyalaridan ilhomlanib, insonning ma'naviy kamoloti, ilohiy muhabbat va ruhiy poklanish masalalarini o'z asarlarida badiiy jihatdan yoritganlar. Demak, tasavvuf ta'limoti islom ma'naviy merosi bilan bir qatorda, mumtoz adabiyotning ham g'oyaviy-falsafiy asoslaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixga nazar solar ekanmiz, Abdurahmon Sullamiyning "Tabaqat us-so'fiya", Abdulloh Ansoriyning "Manozil us-soirin", Faxriddin Ali Safiyning "Rashahot aynil hayot", Ahmadi Afloqiyning "Manoqib ul-orifin", Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo", Abdurahmon Jomiyning "Nafahat ul-uns", Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat", Muhammad Siddiq Rushdiyning "Tazkirat ul-avliyoyi turkiy" kabi asarlarida so'fiylik maslagi va tasavvufning ilmiy-nazariy jihatlari atroflicha yoritib berilgan. Bu jarayonda Alisher Navoiy "Xamsa"si ham yorqin muhim manba bo'la oladi. Adabiyotshunos N.G'afforovning aniqlashicha, "Xamsa"da o'n ikki nafar so'fiy nomi keltirilgan va ularning hammasi aynan "Hayrat ul-abror"da berilgan. Boyazid Bistomiy, Suxravardiy, Bahouddin Naqshband, xojagon tariqati vakillari Xoja Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr Porso, Xoja Ubaydilloh Ahror va Abdurahmon Jomiylar ana shular

sirasidandir. Ulug' so'fiy va shayx Farididdin Attor o'zining "Tazkirat ul- avliyo" asari muqaddimasida shunday yozadi: "Avliyolarning so'zlari kishilar qalbining malhami va ruhining quvvatidir, kimki avliyo so'zini diliga jo etsa, u Qur'on va hadislar mag'ziga eshik oshadi, o'zining holati, axloqini, qilayotgan ishlarining yaxshi-yomonligini o'ylaydigan bo'lib qoladi va hayot, oxirat, insoniylik to'g'risida mulohaza yuritib, ichki olamini tartibga soladi.

Tasavvuf ta'limoti va mumtoz adabiyotning uzviy bog'liqligi o'laroq yuzaga kelgan mumtoz adabiyot an'analaridan biri diniy qarashlarni targ'ib qilish bo'lib, bu an'ana bugungi kunda yangi davr adabiyotida ham bo'y ko'rsatmoqda. Bizning tadqiqodimiz obyekti bo'lgan Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asarida ham diniy-tasavvufiy g'oyalar ilgari surilgan.

Muallif "Odamiylik mulki" kitobida shunday yozadi: "Qadim-qadimdan komillik martabasiga yetganlar shunday yo'lni tanlaganlar, ya'ni: Qur'on va hadislariga amal qilganlar va iymonli do'stlarining nasihatlariga quloq solganlar. Hazrati Umar, Alloh undan rozi bo'lsin. "Menga ayblarimni ko'rsatuvchi kimsaga Alloh xayr bersin!" deb duo qilar ekanlar. U muhtaram zot ko'pincha Salmon Forsiyga, Alloh undan rozi bo'lsin, deb murojaat qilar ekanlar. Bir kuni "Mening ayb va nuqsonlarimni ayting" deganlarida Salmon Forsiy avval u zotdan uzr so'rab keyin: "Eshitishimcha, ikki xil ziravor qo'ydirarmishsiz. Yana biri kunduzi, ikkinchisi kechasi kiyadigan maxsus shimingiz bor emish?" – debdilar. Hazrat Umar bu dashnomni eshitib: "Bulardan boshqa yana aybim bormi?" – deb so'rabdilar. Salmon Forsiy "Yo'q", - deb javob qilganlarida u sharaflig zot: "Shu ikkisi ham menga yetarli, - degan ekanlar" [4:6]. Ushbu misoldan ko'rinadiki, muallif Qur'on va hadisga amal qilish, komillikka intilish, kamtarlik va o'z aybini tan olish kabi tasavvufiy-axloqiy g'oyalarni ilgari surgan. Asarda Hazrati Umar va Salmon Forsiy haqidagi rivoyat orqali insonning o'z nuqsonlarini anglab, ularni tuzatishga intilishi komillikning muhim belgisi sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari Tohir Malik ushbu asarda tavhid, nafsni poklash (tazkiyatun-nafs), komil inson g'oyasi, ma'rifatga intilish, ishq-i ilohiy, zikr va ibodat, sabr va qanoat, tavba, kamtarlik, iymon va axloqiy poklik, murshid–murid munosabati kabi tasavvufiy g'oyalarning barini qamrab olgan. Bu g'oyalar zamonaviy ko'rinishda targ'ib qilinishi bilan bir qatorda kitobxon e'tiboriga mohiyatan chuqur tahl ostida havola etilgan. Bu esa asarning nafaqat badiiy, balki ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatini ham oshiradi.

Ruh haqiqiy go'zallik, nafislik, samoviy zavq va erkinlik timsoli bo'lib, u mumtoz adabiyot markazida turadi. "Ruhning mohiyatini izlash – deydi Imom G'azzoliy, - uning o'ziga xos xususiyatlarini anglash g'oyat hayratlanarli va ko'p g'aroyib ishlardan bahs yuritish demak. Ruhning asosiy sifatlari zavq, sofflik, basirat, g'aflatda qolmaslik, siroyat quvvati, ashyodan tug'iladigan g'am-alamni qabul qilmaslik"dir. Bundan ko'rinadiki inson tuhan poklansagina u farovon hayotga erishadi. Mumtoz adabiyot an'analaridan yana biri ruhni poklash masalasi bo'lib, bu barcha davrlarda jamiki didaktik asarlar yadrosini tashkil

qilgan asosiy g'oyadir. "Odamiylik mulki" asari ham tuhni poklash borasida mukammal qo'llanmalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Unda muallif ruhni poklash masalasi insonning komillikka erishish yo'lidagi eng muhim bosqichlardan biri ekanini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, insonning haqiqiy boyligi moddiy ne'matlar emas, balki pok qalb, imon va go'zal axloqdir. Asarda ruhiy poklanish Qur'on va hadisga amal qilish, yaxshi insonlarning nasihatlarini tinglash hamda o'z ayb va kamchiliklarini tan olib ularni tuzatishga intilish orqali amalga oshishi ta'kidlanadi.

Muallif turli tarixiy shaxslar va diniy arboblardan hayotidan misollar keltirib, inson o'zini doimo nazorat qilib turishi, ya'ni o'z xulqi va amallarini tartibga solib turishi lozimligini ko'rsatadi. Ruhni poklash yo'lida kamtarlik, tavba, sabr, qanoat va nafsni tiyish muhim fazilatlar sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, inson boshqalarning nasihatini qabul qila bilishi va o'zidagi nuqsonlarni ko'ra olish orqali ma'naviy jihatdan yuksalishi mumkinligi ham alohida ta'kidlanadi.

Tohir Malikka xos o'zgacha, shu bilan birga, yorqin bir badiiy usul bu diniy-ma'rifiy motivlarning asar mohiyatiga sintezlashuvini ta'minlash bo'lib, muallifning nafaqat didaktik risolalarida, balki hikoy, qissa va roman janridagi asarlarida ham diniy-ma'rifiy mavzular sintezlashuvi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Binobarin, diniy-ma'rifiy mavzu va motivlarning badiiy asar matniga sintezlashuvi muayyan evolyutsiya, aniqrog'i, ijodkor hayotiy xulosalari va badiiy iqtidorining pog'onama-pog'ona yuksalishi jarayonida yuz bergani qissalar mazmunidan anglashilinishini unutmashimiz joiz. Istiqloq shukhi kezmagan dillarda ham e'tiqodiy maslak va qat'iyat hamisha yashab kelgani, xalqning asriy qadriyatlarini hech qachon zavol bilmasligini Tohir Malik asarlari bizga qayta va qayta uqtiradi.

Alloma Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida keltirilgan hikmatga tayangan holda inson baxti, ruhiy barqarorlik va nafsni tarbiyalash masalalarini badiiy-falsafiy ruhda yoritgan Tohir Malik komil inson bo'lish yo'li va haqiqiy saodat manbalari haqida pand-nasihat tarzidagi salmoqli fikrlarni bayon etadi.

Bunda muallif Abdurahmon Jomiyning fikrlarini keltirib, inson baxtining besh asosiy omilini sanab o'tadi: vujud sog'ligi, Haqqa ishonish, rizq kengligi, sadoqatli do'st va farog'at tuyg'usi. Bu besh unsur inson hayotining moddiy va ma'naviy muvozanatini ifodalaydi. Bir tomonda jismoniy salomatlik va rizq, ikkinchi tomonda esa imon, do'stlik va ruhiy xotirjamlik turadi. Shunday qilib, muallif baxtni faqat moddiy ne'matlar bilan emas, balki ma'naviy qadriyatlar bilan ham bog'laydi.

Parchaning keyingi qismida ruhiy holat tasviri beriladi. "O'zini bilmagan odamlar boshqalarning so'zlari ta'sirida vahimaga tushadilar" degan fikr orqali insonning ichki beqarorligi tanqid qilinadi. Ushbu jumalarning e'tiborli tomoni shundaki, muallif vahimaning asl sababi insonning o'zini anglamasligida ekanini ko'rsatadi.

So'nggi jumlada axloqiy-falsafiy xulosa berilgan bo'lib, bu muallifning tasavvuf ta'limotidan ham yaxshi xabardor ekaniga ishoradir: agar inson nafs vasvasasi bilan o'zida

yo‘q narsani bor deb tasavvur qilsa, Yaratgan ham unga shu holatni beradi. Bu fikr insonning ichki dunyosi va taqdiri o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Ya’ni insonning fikri, niyati va ruhiy holati uning hayotiga ta’sir ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Tohir Malik “Odamiylik mulki” asarida mumtoz adabiyot an’analarini davom ettirgan holda mumtoz adabiyot namunalaridan ham keng foydalangan. U bu asarlardan keltirilgan iqtiboslarni o‘z fikri dalili sifatida kitobxonga yetkazishni o‘z oldiga maqsad qilgan bo‘lsa ham, o‘rni kelganda shu asarning muallifini maqtovlarga ko‘mib, kitobxonga bu asar bilan tanish bo‘lmaslik insoniylikdan emasligini uqtirib o‘tadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S. Yangiboyeva. *Tohir Malik asarlarida diniy-ma’rifiy motivlarning badiiy sintezi*: PhD diss. – Urganch, 2025. – 38-bet.
2. Rasulova Sarvinoz Sadatovna. *Tohir Malik qissalari poetikasi*: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2025. – 149 b.
3. Tohir Malik. “Odamlarning hammasi yaxshi bo‘lishini xohlayman”. Xoliyor Safarov suhbat. – “Oyna”.
4. Ibrohim Haqqul. *Tasavvuf va she’riyat*. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1990. – 15-bet.
5. Homidiy. *Tasavvuf allomalari*. – Toshkent: Sharq, 2004. – 5-bet.
6. Tohir Malik. *Odamiylik mulki*. – Toshkent: Sharq, 2018. – 6-bet.
7. Ibrohim Haqqul. *Navoiyga qaytish*. – Toshkent: Tafakkur, 2016. – 32-bet.
8. Tohir Malik. *Odamiylik mulki*. 1-kitob. – Toshkent: Sano standart, 2018. – 73-bet.
9. Tohir Malik. *Odamiylik mulki*. 3-kitob. – Toshkent: Sano standart, 2018. – 21-bet.
10. <https://ziyo.uz>
11. <https://library.ru>
12. Азаренко С.А. социальный хронотоп и методология современного
13. обществознания. – Москва: Социемы, 2007. – № 13 // <https://ru.wikipedia.org>.
14. Гогтишвили Л.А. Хронотоп. Новая философская энциклопедия.
15. – Москва: Мысль, 2000. Т. 4 // <https://ru.wikipedia.org>.